

“OFB Corporate” (veb va mobil versiya) tizimidan foydalangan holda bank hisobvarag‘ini yuritish bo‘yicha QO‘SHILISH SHARTNOMASI

“Orient Finans” XATB (bundan keyin Bank deb ataladi) nomidan 20__ y.
“___”dagi ____-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi
F.I.Sh._____, bir tomondan, va boshqa tomondan
Korxona (bundan keyin Mijoz deb ataladi) nomidan faoliyat
yurituvchi ____ F.I.Sh._____, “OFB Corporate” tizimida bank hisobvarag‘ini yuritish
bo‘yicha shartnomasini (keyingi o‘rnarda - Shartnoma) unga qo‘shilish yo‘li bilan qabul
qilishni, shartnomaga qo‘shilish uchun Ariza (keyingi o‘rnarda - Ariza), taqdim etib,
quyidagicha kelishib oldilar:

1. XIZMAT MAZMUNI

1.1. Bank Mijozning imzo va muhr izi tushirilgan kartochkasida ko‘rsatilgan shaxslar elektron raqamli imzo yordamida bank operatsiyalarini amalga oshirish va hisobvaraqdan ko‘chirma olish uchun bankka hujjatlarni elektron shaklda taqdim etish imkoniyatini beruvchi “OFB Corporate” tizimi (keyingi o‘rnarda - Tizim) yordamida Mijozning hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatadi.

1.2. Bank Mijozga “OFB Corporate” veb tizimi orqali quyidagi turdagи xizmatlar (keyingi o‘rnarda – Xizmat turlari)ni taqdim etadi:

1.2.1. Axborot xizmati:

- 1.2.1.1. Hisob raqamlarda ayni paytdagi qoldiq mablag‘lar to‘g‘risida ma’lumot;
- 1.2.1.2. Hisob raqamlari bo‘yicha ko‘chirma va hisobotlar olish;
- 1.2.1.3. Xodimlar ma’lumotnomasini taqdim etish;
- 1.2.1.4. Kontragentlar ma’lumotnomasini taqdim etish.
- 1.2.1.5. To‘lov hujjatlari namunalarini taqdim etish.
- 1.2.1.6. Paycontrol raqamli kalitini taqdim etish.
- 1.2.1.7. Hisobraqamlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish.
- 1.2.1.8. Push-bildirishnomalarini yuborish, hisobraqamlar harakati haqidagi bildirishnomalarni boshqarish.

1.2.1.9. “Yangiliklar” xizmat turi.

1.2.1.10. “Xatlar” xizmat turi.

1.2.2. Tranzaktsiya xizmati:

- 1.2.2.1. Mijozning to‘lov topshiriqnomalarini ijro qilish.
- 1.2.2.2. “Ish haqi loyihasi” doirasida Mijoz xodimlariga qo‘shilish uchun ish haqi varaqasi va reestrini yuborish.

1.2.2.3. Valyuta o‘tkazmasi

- 1.2.2.4. Valyuta ayrboshlash (sotib olish va sotish, chet el valyutasini konvertatsiya qilish)

1.2.2.5. Omonatlar holatini ko‘rish

1.2.2.6. Korporativ kartani ochish uchun ariza topshirish

1.2.2.7. Tashqi savdo shartnomalari bilan bog‘liq ma’lumotnomalarini qabul qilish yoki rad etish.

1.2.2.8. Kartotekadagi hujjatlarni ko‘rish va to‘lov so‘rovini qabul qilish yoki rad etish.

1.2.2.9. Chiquvchi va kiruvchi to‘lov topshiriqnomalari

1.2.2.10. To‘lov uchun hisob varaqalar

1.2.2.11. MUNIS tizimi orqali to`lovlar

1.3. Tizim yangilanib borishi natijasida yangi xizmat turlari bilan to'ldririlib borilishi mumkun. Yangi joriy qilingan xizmat turlari uchun haq miqdori Bank tariflari yoki Bankning tegishli vakolatga ega kollegial organi tomonidan belgilanadi. Yangi joriy qilingan bank xizmat turlaridan foydalanishdan avval, Mijoz yangi xizmat turi uchun belgilangan tarif bilan tanishib chiqishi lozim va Mijoz mazkur xizmat turidan foydalanishni boshlash vaqtidan etiboran Bank Mijozdan tarifga munosib ravishda xizmat haqqi oladi.

2. ATAMALAR, TUSHUNCHA VA QISQARTMALAR

Ushbu Shartnomada kuyidagi atamalar, tushuncha va qisqartmalar qo'llaniladi:

2.1 **"OFB Corporate" tizimi (Tizim)** – mijozga bank xizmatlarini ko'rsatish uchun "OFB Corporate" masofaviy bank tizimining veb va mobil versiyasining birlashmasidir. O'zbekiston Respublikasi qonunchiliqiga o'zgarishlar kiritilishi munosabati bilan hamda mijozlar ehtiyojlariga yanada to'liqroq moslashtirilishini ta'minlash uchun Bank tomonidan Tizim yangilanishi va o'zgartirilishi mumkin. Tizim avtomatik ravishda, Mijozning ishtirokisiz, lekin tegishli tarzda xabardor qilingan holda yangilanadi. Har qanday vaqtida Mijoz tizimning so'nggi versiyasida ishlaydi.

2.2 **EH – Elektron hujrat**

2.3 **EH maqomi** – Tizimda EHga ishlov berish ayni paytda qaysi bosqichda ekanligini belgilash.

2.4 **Mijoz foydalanuvchisi** – Mijoz nomidan tizim ichida ishlash huquqiga ega bo'lgan va tizimda ro'yxatdan o'tgan mijozning xodimi. Mijozning foydalanuvchilari bankka yo'llanadigan so'rovnama, elektron hujatlarni shakllantiradilar va bankdan ma'lumot oladigan va qayta ishlaydilan hamda mijoz nomidan EHni elektron usulda imzolaydilar.

2.5 **PayControl** – OFB Corporate tizimi foydalanuvchisiga qo'shimcha qurilmalardan foydalanmasdan OFB Corporate mobil ilovasida o'rnatilgan PayControl kaliti yordamida tranzaktsiyalarni tasdiqlash imkonini beruvchi kriptografik ma'lumotlarni himoya qilish vositasi.

2.6 **E-IMZO** – DSQ huzuridagi "Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi" DUK tomonidan ishlab chiqilgan "OFB Corporate" Tizimi foydalanuvchisiga operatsiyalarni tasdiqlash huquqini beruvchi axborotni kriptografik himoya qilish vositasi,

2.7 **Mijozning to'g'ri PayControl kaliti** – Mijozning ochiq kalitli ERI bilan tekshirilganda ijobiy natija beruvchi Mijozning EHsidagi PayControl kaliti.

2.8 **Mijoz ERIsining mahfiy kaliti** – ERI huquqiga ega bo'lgan Mijozning foydalanuvchilari Mijozning EHni shakllantirish uchun ishlashishga mo'ljalangan kalit (baytlar ketma-ketligi)

2.9 **El sertifikati** – "OFB Corporate" tizimidagi elektron imzoni tekshirishda qo'llaniladigan, El kaliti egasi to'g'risidagi ma'lumotlar, kalitning amal qilish doirasi va amal qilish mudatini o'z ichiga olgan elektron hujrat.

2.10 **Mijozning faol(aktiv) ochiq PayControl kaliti** – Bankda tomonidan Tizimda ro'yxatdan o'tkazilgan, Mijoz foydalanuvchisi tomonidan ayni paytda tizimda ishlash uchun foydalaniladigan Mijoz foydalanuvchisining ochiq PayControl kaliti. Istalgan vaqtida Tizimda mazkur Mijoz foydalanuvchisining birdan ortiq bo'lmagan PayControl aktiv ochik kaliti bo'lishi mumkin.

2.11 **Foydalanuvchining tizimdagi nomi/ismi** – Muayyan Mijoz foydalanuvchi nomini ifodalaydigan, Tizimda mazkur foydalanuvchini mos kelishi va uning Tizimdagi huquqlarini aniqlashga imkon beruvchi ochiq ketma-ketlikdagi belgilari.

2.12 **Foydalanuvchining paroli** – Foydalanuvchining huquqlariga muvofiq Mijozning resurslariga kirish uchun Tizimga kirishda taqdim etilagan

Foydalanuvchining tizimdagи nomi va PIN bilan USBga foydalanuvchining shaxsi mos kelishini tasdiqlash imkonini beradigan Mijoz foydalanuvchisi bilan bog'liq va faqat unga ma'lum bo'lgan mahfiy ketma-ketlikdagi belgilan.

2.13 **Foydalanuvchi logini** – Mijozning tizimga kirishini jismoniy muvofiqligini tasdiqlashga imkonini beruvchi, tizim foydalanuvchisi bilan bog'liq bo'lgan belgiarning noyob ketma-ketligi.

2.14 **Shifrlar** – Ma'lumotlarni (elektron hujjatlarni) Mijoz va Bank o'tasida aloqa liniyalari orqali uzatishda ruxsatsiz o'qishdan himoya qilishni ta'minlash.

2.15 **Tizimda ishslash qoidalari** – Tizimning joriy versiyasi bilan to'g'ri ishslashni tasvirlaydigan qog'oz yoki elektron shakldagi ko'rsatmalar, protseduralar, tizim foydalanuvchilarining funksional majburiyatlarini tavsiflovchi jamlanma. Qoidalar tizim versiyalaridagi o'zgarishlar tufayli o'zgarishi mumkin.

2.16 **Mijozning resursi** – Mijoz haqida, mijozning hisobvaraqlari, balanslari, aylanmalari, to'lov hujjatlari, elektron pochta, foydalanuvchilari, mijozning huquq va profili to'g'risidagi bankda saqlanayotgan ma'lumotlar.

2.17 **QR kod** – raqamli qurilma tomonidan o'qiladigan va piksel qatorlarda ma'lumotni saqlaydigan ikki o'Ichovli matritsali shtrix-kod turi.

2.18 **Tarif** – Bank tomonidan Mijozning bank hisobraqamlariga xizmat ko'rsatish va xisobraqamlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun Bank foydasiga to'lanadigan komissiya.

2.19 **AKHQV** – axborotni kriptografik himoya qilish vositasi.

3 UMUMIY QOIDALAR

3.1 Tizimning Mijoz foydalanividagi qismi standart dasturiy ta'minotdan iborat bo'lib, quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- 1) Tizim bilan ishslash uchun kompyuter, noutbuk yoki planshet mavjudligi.
- 2) Bank bilan aloqa qilish uchun telefon linyasi yoki mobil aloqa tizimi.
- 3) Statsionar kompyuterlar va noutbuklar ishlaydigan operatsion tizim: *Windows 7* yoki undan yuqori. Planshetlar uchun qo'llab-quvvatlanadigan operatsion tizim: *Android 7x* va undan yuqori.
- 4) O'rnatilgan antivirus (so'nggi yangilanishlari bilan).
- 5) Google Chrome 70x, Mozilla Firefox 63x va Opera 56x, yoki mazkur internet-brauzerlarining so'ngi versiyalari.
- 6) Faol Internet tizimi.

3.2 Tizimning mobil versiyasi standart dasturiy ta'minotdan iborat bo'lib, u quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- 1) Android x.6 yoki undan yuqori
- 2) IOS x.10 yoki undan yuqori
- 3) 3G yoki undan yuqori faol internet tizimi
- 4) QR-kodini skanerlash qobiliyatiga ega qurilma

3.3 **Tomonlar tan oladilar:**

- O'zbekiston Respublikasining Davlat standartlariga (O'z DSt standarti) muvofiq ishlovchi elektron raqamli imzo va elektron hujjatlarni uzatish uchun Tizimda foydalaniladigan usuli;

- Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron hujjat o'zboshimchalik bilan o'zgartirilsa, ERI noto'g'ri bo'ladi, ya'ni ERI tekshiruvi salbiy natija beradi;

- Mijozning ERIsini qalbakilashtirish, mijoz nomidan elektron hujjatning to'g'ri elektron raqamli imzosini Mijozning yopiq kalitli ERIsini bilmay turib yaratishning iloji yo'q;

- Mijozning PayControl va E -IMZO kaliti bilan tasdiqlangan elektron hujjatlar mijozning rahbari tomonidan imzolangan va mijozning muhr izi aks etgan qog'oz shakldagi tegishli hujjatlariga teng hisoblanadi. Mijozning PayControl и E -IMZO kaliti

bilan imzolanmagan Elektron hujjatlar bank tomonidan ko'rib chiqilmaydi va ijro etilmaydi. Bunda elektron hujjatlar ustunlikka ega bo'lib, qog'oz shakli bilan farqlansa, qog'oz shakli Mijoz tomonidan tuzatilishi lozim;

- Bank tizimi orqali Mijozning PayControl va E-IMZO kaliti bilan yaratilgan elektron hujjatlar nizoli holatlar yuzaga kelganda texnik ekspertiza o'tkazish tartibiga muvofiq tasdiqlovchi hujjat sifatida qo'llaniladi. Elektron imzoga ega bo'limgan elektron hujjatlar, nizoli holatlar vujudga kelganda tasdiqlovchi hujjat sifatida qabul qilinmaydi;

- Tizimda ishslashning yagona vaqt o'chov shkalasi sifatida Toshkent vaqt mintaqasi qo'llaniladi. Nazorat vaqt bo'lib O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankingin apparat vositalari tizim soati hisoblanadi.

4 TO'LOV SHARTLARI

4.1. «PayControl» tizimida hisobvaraqa xizmat ko'rsatganlik uchun Mijoz Bank Tariflariga muvofiq haq to'laydi.

4.2. To'lov mijoz tomonidan hisobot oyidan keyingi har oyning 10-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

5 TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1 Bank quyidagi majburiyatlarga ega:

5.1.1 Mijozga "OFB Corporate" (veb va mobil versiya) tizimiga kirish uchun login va parolni berishga;

5.1.2 Mijozning ochiladigan PayControl kalitini yaratish;

5.1.3 Kalitlar (PayControl kaliti)ni Mijozga, ya'ni bevosite vakolatli shaxs (birinchi imzo huquqiga ega rahbar)ga topshirish-qabul qilish dalolatnosti (Shartnomaning 1-sonli ilovasi)ni imzolagan holda taqdim etish;

5.1.4 Bank serveriga ruxsatisiz kirishga yo'l qo'ymaslik maqsadida, axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ichki tartib-qoidalarga muvofiq va o'ziga ma'lum bo'lgan usullar orqali amalga oshirish orqali mijozning ma'lumotlarini sir saqlanishini ta'minlash.

5.1.5 "OFB Corporate" tizimida texnik nosozliklapr (uchinchи shaxs tomonidan dasturiy ta'minotni yangilanishi, profilaktik xizmat ko'rsatish, nosozliklar va kiritilgan muddatlarning o'rnatilishi) yuzaga kelganda, Bank o'zining rasmiy axborot manbalari orqali tizim foydalanuvchilarini xabardor qilish majburiyatini, shuningdek, texnik nosozliklarni bartaraf etish uchun zarur harakatlarni amalga oshiradi. Mijoz "OFB Corporate" tizimining nosozligi yuzasidan Bankka qarshi da'volar taqdim etishga haqli emas, bunday holatda, muammolar bartaraf etilgunga qadar barcha bank operatsiyalari qog'oz shakldan foydalangan holda, yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga nazarda tutilgan usullar bilan amalga oshiriladi.

5.1.6 Mijoz operatsiyalari sirini saqlash va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni faqat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hollarda uchinchi Shaxslarga taqdim etish.

5.2 Bank quyidagi huquqlarga ega:

5.2.1 Agar mijoz mahfiy va tegishli PayControl kalitlarini amal qilishini bekor qilinishi haqida yozma xabarnoma taqdim etsa, Mijozning tizimdagi faol ochiq PayControl kalitini o'chirish;

5.2.2 Agar mijozning PayControl kalitlari buzilgan/qalbakilashtirilgan deb gumon qilinsa yoki imzo qo'yish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxati o'zgartirilsa, Mijozni ogohlantirmsdan, Mijozning faol ochiq PayControl kalitini bloklash va Mijozdan PayControl kalitlar juftligini o'zgartirishni talab qilish;

5.2.3 Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qarolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi

kurashish bo'yicha qonun hujjatlari talablariga rioya qilish hamda xavfni kamaytirish maqsadida:

- mijoz amalga oshirgan operatsiyalarning qonuniyligini yozma ravishda bayon etguniga qadar "OFB Corporate" tizimi orqali mijozga xizmat ko'rsatishni to'xtatishga va agar Mijoz tizim yordamida shubhali operatsiyalar amalga oshirilganligi aniqlansa, "OFB Corporate" tizimi orqali xizmat ko'rsatishni rad etishga haqli;

- mijozni joylashgan joyi bo'yicha (pochta manzili) tekshirishga, shu jumladan tizim yordamida shubhali operatsiyalar o'tkazilganligi haqida gumon mavjud bo'lsa, operatsiyalarni amalga oshirish jarayonini o'rganishga haqli;

- Tizim orqali shubhali operatsiyalar amalga oshirilgan taqdirda, "OFB Corporate" tizimi orqali mijozga xizmat ko'rsatishni 3 bank ish kunigacha bo'lgan muddatga to'xtatib qo'yish;

- Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida bunday xizmatlardan foydalanish bo'yicha asosli gumonlar mavjud bo'lsa, tizim bo'yicha xizmat ko'rsatishni to'xtatish.

5.2.4 To'lovni o'tkazish vaqtin yakunlangunga qadar to'lov kunida Mijozning hisobvarag'ida to'lovni amalga oshirish uchun mablag' etarli yoki mavjud bo'lmasa, Mijoz tomonidan "OFB Corporate" tizimi orqali bankka yuborilgan elektron to'lov topshiriqnomalarini qabul qilmaydi va rad etadi.

5.2.5 "OFB Corporate" tizimining veb va mobil versiyasiga yangi xizmatlar turlarini qo'shish yoki joriy xizmatlar turlariga o'zgartirishlar kiritish.

5.3 Mijoz quyidagi majburiyatlarga ega:

5.3.1 Kalitlar (ochiq kalitli ERI va PayControl kaliti)ni shaxsan (shaxsan tashkilot rahbari) bankdagi olish;

5.3.2 "OFB Corporate" tizimning ishlashi uchun normal shart-sharoit yaratish, xususan, shartnomaning 3.1. va 3.2. bandida ko'rsatilgan minimal dasturiy-texnik talablarni saqlash;

5.3.3 "OFB Corporate" tizimi foydalaniladigan parol va mahfiy kalitli USB kalitni sir saqlash va uchinchi shaxslarga bermasliq;

5.3.4 "OFB Corporate" tizimiga ruxsatsiz kirishga urinish PayControl kaliti yo'qotilganlik/shikast etkazganlik holatlari haqida darhol bir ish kuni ichida Bankni yozma ravishda xabar berish;

5.3.5 Bankning amaldagi tariflariga muvofiq o'z vaqtida bank xizmatlari uchun haq to'lash.

5.4 Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

5.4.1 Faol PayControl kalitini muddatidan oldin bekor qilish va Bankni yozma ravishda Mijozning mahfiy va unga muvofiq PayControl kalitini bekor qilish to'g'risida xabardor qilgan holda faol PayControl kalitini bloklash;

5.4.2 Mijoz rahbarining imzosi bilan tasdiqlangan arizasiga muvofiq Mijoz PayControl kalitlar juftligini yangidan tayyorlashga so'rov jo'natish yoki kalitlarni qayta generatsiya qilishga elektron so'rov yo'llash;

5.4.3 Tizimida o'z ishini vaqtinchcha o'chirib qo'yish(bloklash)ni yozma so'rov asosida amalga oshirish.

5.5 Bank mijozning tizim orqali yo'llagan hujjatlarini kechayu-kunduz davomida qabul qiladi.

Mijoz tomonidan joriy operatsion kunda yuborilgan hujjatlar Bankka joriy operatsion kunning tugashiga qadar taqdim etilishi va "Hujjat sanasi" maydonida operatsion kunning sanasi ko'rsatilishi kerak. Joriy operatsion kun tugagandan keyin yuborilgan to'lov topshiriqnomalari keyingi operatsion kun bilan amalga oshiriladi.

6.1 Bank Mijozning PayControl va E-IMZO kalitidan uchinchi shaxslar yoki kirish huquqiga ega bo'Imagan shaxslar tomonidan foydalanilishi (mijozlar PayControl kalitini yo'qotishi, parollarni uzatish va boshqalar), shuningdek Mijozning 5.3.4-band bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida Mijozga etkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi.

6.2 ERI dan foydalangan holda to'lov topshiriqnomalarida Mijozning aybi tufayli noto'g'ri ko'rsatilgan ma'lumotlar bo'lsa, Bank komissiyasining avtomtaik hisoblanishi uchun javobgar emas.

6.3 Mijoz tomonidan elektron hujjatlarda noto'g'ri ko'rsatilgan ma'lumotlar bo'lsa, Bank ERI yordamida amalga oshirilgan masofaviy operatsiyalar uchun javobgar emas.

6.4 Mijoz tomonidan foydalanish uchun taqdim etilgan PayControl va E-IMZO kaliti yordamida rasmiylashtirilgan elektron hujjatlar va ularda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'lg'riliqi uchun javobgarlik Mijoz zimmasida bo'ladi.

6.5 Tizimdan foydalanganish davomida Mijoz va Bank o'rtasidagi nizolar kelib chiqqan taqdirda, Tomonlar nizoli holatlar yuzaga kelganda texnik ekspertizani o'tkazish tartibi (Shartnomaning 8 bo'limi)ga muvofiq nizolarni ko'rib chiqishda ishtirot etish majburiyatini oladilar, ushbu bo'limda ko'rsatilgan qoida talablariga rioya qiladilar va amaldagi qonun hujjatlari muvofiq javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar.

6.6 Bank nazorati ostida bo'Imagan hollarda, shuningdek Mijoz tomonidan belgilangan texnik shartlarga rioya qilinmagan taqdirda, ma'lumotlarni jo'natish va qabul qilib olish bilan bog'liq uzilishlar va bank hizmatlari uchun Bank javobgar emas.

7 MIJOZNING HISOBVARAG'INI YURITISH TARTIBI

7.1 Mijozning shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirma Mijoz ko'rsatgan davr uchun shakllantiriladi. Mijoz bankka "OFB Corporate" tizimi orqali taqdim etgan to'lov hujjatlarni kelgusida bajarish bo'yicha ko'rsatma beradi.

7.2 To'lov topshiriqnomasini olishda Bank mijozning PayControl va E-IMZO kaliti to'g'riliqini tekshiradi, hujjat rekvizitlari to'g'ri to'ldirilganligini tekshiradi va mijozning joriy hisobvarag'ida debet qoldig'i bor-yo'qligini tekshiradi. Agar to'lov hujjatlarini tayyorlash bo'yicha me'yoriy hujjatlar talablariga nomuvofiqliklar, noaniqliklar yoki ziddiyatlar topilsa, Bank ularni qabul qilmaslik huquqiga ega.

8 NIZOLI HOLATLAR YUZAGA KELGANDA TEXNIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH TARTIBI

8.1 Nizoli holat – bu "OFB Corporate" tizimining tegishli texnik vositalari yordamida to'g'riliqi Mijozning vakolatli vakili (foydalanuvchisi) tomonidan mualliflashtirilmagan EHni Bank tomonidan Mijozning nomidan ekspertizadan o'tkazish, shuningdek Bank tomonidan EHni sabab ko'rsatmagan holda o'tkazmasligi bilan bog'liq Mijozning Bankka bo'lgan noroziligi. Nizoli holat talablari aniq o'rnatilishi yoki EHni Mijozning PayControl kalitini tekshirish natijasiga ko'ra rad etilishi mumkin.

Mijoz tomonidan E-IMZO orqali imzolangan EH bo'yicha kelib chiqadigan shikoyalar Nizoli holat sifatida qabul qilinmaydi.

8.2 Bunday holatda Mijoz "OFB Corporate" tizimidagi Bank uchun hisobvaraq bo'yicha operatsiyani amalga oshirish uchun asos bo'lgan yoki mavjud bo'Imaganda hisobvaraqdan haqiqatda pul echilishi sodir bo'lgan EHni ko'rsatgan holda asosiy norozilik talablari aks etgan ariza bilan Bankka murojaat qiladi. Bank mijozning hisobvarag'idan pul mablag'lari echilgan paytdan ikki ish kuni ichida mijozning norozilik arizasini qabul qiladi. Mijozning norozilik arizasi ko'rib chiqilish davrida Mijozning "OFB Corporate" tizimidagi ishi Bank tomonidan bloklandi.

8.3 Bank Mijozning arizasi taqdim etilgan kundan e'tiboran besh kundan ortiq bo'Imagan muddatda arizani ko'rib chiqish uchun nizoni ko'rib chiqish komissiyasini

tuzishi shart. Komissiya tarkibiga Mijoz vakillari (mijoz tanloviga ko'ra), Bank vakillari (bank tanloviga ko'ra) va zarur hollarda mustaqil ekspertlar kiritiladi. Komissiya a'zolarini tanlash barcha ishtirokchilar bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

8.4 Hujjat bo'yicha nizolarni hal qilish uchun Mijoz bankka tegishli texnik mutaxassis, shuningdek hujjatlarning yuridik ahamiyatini tasdiqlovchi mijozning vakolatli foydalanuvchisi (avtorizator) bilan birga kelishi kerak.

8.5 Nizoni ko'rib chiqish komissiyasi tomonidan nizoni ko'rib chiqishning natijasi, ko'rib chiqilayotgan hujjatda Mijozning PayControl kalitining haqiqiyligi bo'yicha xulosasiga ko'ra javobgar tomonni aniqlashdan iborat.

8.6 Nizoni ko'rib chiqish komissiyasi arizani ko'pi bilan besh kun muddat ichida ko'rib chiqadi. Arizani ko'rib chiqish quyidagi bosqichlardan iborat:

8.6.1 Nizoni ko'rib chiqish komissiyasi Mijozning norozilik arizasini texnik ekspertizadan o'tkazadi.

8.6.2 Ruxsat etilmagan tarzda pul mablag'ini echish hollarda:

- Tizimda nizoli hujjatga mos keladigan tranzatsiya (o'tkazma) mavjudligini tekshiradi. Agar ko'rsatilgan tranzaktsiya (pul mablag'ini echish holati mavjud bo'lmasa) mavjud bo'lmasa, Mijozning norozilik arizasi avtomatik tarzda echiladi.

- Agar ko'rsatilgan trazaktsiya Bank tizimida aniqlansa, tegishli hujjat (elektron yoki asl to'lov hujjati) mavjudligi tekshiriladi. Bunday hujjat mavjud bo'lmasa (hisobdan chiqarish uchun asos) Bank mijozni hisobvarag'idan ruxsatsiz echilgan summani belgilangan tartibda qoplaydi.

- Agar asl to'lov hujjati topilsa, mijozning norozilik arizasi avtomatik ravishda echiladi.

- Agar to'lov hujjatining asli mavjud bo'lmasa, "OFB Corporate" tizimida elektron hujjat mavjud bo'lsa, ushbu elektron hujjatning PayControl kaliti to'g'riliги tahlil qilinadi.

8.7 Nizoni ko'rib chiqish komissiyasi Mijozning EHdagi PayControl kalitini texnik ekspertizadan o'tkazadi, ya'ni:

- Bank mazkur EHiga muvofiq keluvchi PayControl kalitini taqdim etishi mumkin;
- Agar PayControl kaliti mavjud bo'lsa, hujjatni imzolagan Mijozning foydalanuvchisi aniqlanadi;

- Agar bunday foydalanuvchi aniqlansa, mazkur foydalanuvchining tegishli guvohnomasi (sertifikat) va "OFB Corporate" tizimi axborotlar bazasidan faol PayControl kaliti qidiriladi;

- Belgilangan faol ochiq kalit aniqlanganda, EH(nizoli)ga tegishli PayControl kaliti tekshiriladi. Agar PayControl kaliti tasdiqlansa Mijozning norozilik arizasi avtomatik tarzda echiladi;

8.8 Texnik ekspertiza asosida nizoni ko'rib chiqish komissiyasi dalolatnoma tuzadi.

8.9 Agar nizoni ko'rib chiqish komissiyasi tomonidan Mijozning PayControl kaliti to'g'ri ekanligi va faol PayControl kaliti Mijozga tegishli ekanligi tasdiqlansa, Bank Mijoz oldida uning nizoli EHsi bo'yicha javobgar bo'lmaydi.

9 SHARTNOMA MUDDATI, O'ZGARTIRISH VA TUGATISH TARTIBI

9.1 Ushbu Shartnoma noma'lum muddatga tuzilgan bo'lib Tomonlar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

9.2 Ushbu Shartnoma Mijozning arizasiga binoan yoki Bankning sud tartibidagi ta'labiga binoan bekor qilinmaguncha amal qiladi.

9.3 Shartnomaga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish (shu jumladan, SHartnomaning yangi tahririni Bank tomonidan tasdiqlash) Bank tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi, tariflardagi o'zgarishlar bundan mustasno. Tariflarni o'zgartirish tariflarga qo'shimcha imzolash orqali amalga oshiriladi.

9.4 Shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kuchga

kirishi uchun Bank axborotni oshkor qilish tartibiga amal qiladi.

9.5 Bank Mijozga ma'lumotlarni oldindan oshkor qilish yo'li bilan SHartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar to'g'risida o'zgartirish va qo'shimchalar kuchga kirishidan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin quyidagi usullardan biri orqali xabardor qiladi:

a) ushbu ma'lumotlarni Bankning ofb.uz veb-saytida joylashtirish;

б) mijozga xizmat ko'rsatuvchi bankning alohida bo'linmalarida axbarot stendlarida e'lonlarni joylashtirish;

в) elektron pochta orqali axborot xabarlarini yuborish;

г) mijozga ma'lumotlar olish va uning Bankdan kelganligini aniqlash imkonini beruvchi boshqa usullar.

9.6 Ushbu Shartnoma Mijoz tomonidan xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq barcha to'lovlarni to'liq hisob-kitob qilgandan keyin istalgan vaqtida mijozning iltimosiga binoan belgilangan tartibda bekor qilish mumkin.

9.7 O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalarda nazarda tutilgan boshqa hollatlarda, yoki boshqa Tomon tomonidan Shartnoma shartlari jiddiy buzilgan taqdirda Bankning talabiga binoan faqat sud qarori asosida bekor qilinishi mumkin.

9.8 Shartnoma bekor qilingandan so'ng, mijozning hisobvarag'idagi mablag' qoldig'i uning yozma arizasi asosida mijozga 7 (etti) kundan kechiktirmay beriladi yoki uning ko'rsatmasi bo'yicha boshqa hisob raqamiga o'tkaziladi. Shartnomani bekor qilish Mijozning hisobini yopish uchun asos hisoblanadi. Agar Shartnoma bekor qilingan kundan boshlab 7 (etti) kun ichida Mijoz boshqa hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish to'g'risida yozma ko'rsatma bermasa, Bank Mijozining hisobvarag'idagi mablag' qoldig'ini 29842 (faol bo'limgan depozit majburiyatları) hisobvarig'iga o'tkazadi.

10 NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

10.1 Ushbu Shartnoma bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar o'rtasida nizolar o'zaro kelishuv asosida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

10.2 Agar Tomonlarnig muzokaralari natijasida o'zaro kelishuvga erishish mumkin bo'lmasa nizolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalarga muvofiq Mijozga xizmat ko'rsatuvchi Bank filialali joylashgan erdag'i tegishli sudda ko'rib chiqilishi kerak.

10.3 Mijoz va uchinchi shaxslar o'rtasidagi o'zaro da'volar va hisob-kitob bo'yicha nizolar qonun hujjalarda belgilangan tartibda Bank ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

11 BOSHQA SHARTLARI

11.1 Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan tomonlar o'rtasidagi munosabatlар O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Ushbu shartnomaga barcha qo'shimchalar uning ajralmas qismi hisoblanadi.

11.2 Mijoz horijiy bank yoki moliya institutlaridan horijiy valyutadi investitsiya, kredit yoki qarz jalb qilish bo'yicha shartnoma imzolanagan bo'lib, mazkur shartnomada investitsiya, kredit yoki qarz mablag'laridan foydalanish (maqsadli yoki maqsadsiz va sarflashning boshqa shartlari), maxsus hisob raqam ochish (Hukumat qarori asosida) va mazkur hisob raqam orqali investitsiya, kredit yoki qarz mablag'laridan foydalanib hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi belgilab qo'yilgan bo'lsa, Mijoz nomiga aynan shu investitsiya, kredit yoki qarz mablag'laridan foydalanish uchun ochilgan maxsus hisobraqamlar orqali hisob-kitoblar Mijoz, Bank hamda Horijiy Bank (agar bu investitsiya, kredit va qarz berish shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa) o'rtasida imzolangan alohida shartnoma (keyingi o'rinnarda – "Alohida shartnoma") asosida amlga oshiriladi.

11.3 Agar yuqorida eslatib o'tilgan Alohida shartnoma shartlari mazkur Bank hisobvarag'i shartnomasi shartlariga zid bo'lgan taqdirda, Mijoz, Bank hamda Horijiy

Bank o'rtasida imzolanagan Alovida shartnomada belgilangan cheklovlar Mijozning manfaatlariga zid emasligi hamda ushbu cheklovlar yuzasidan Bankka hech qanday e'tiroz yoqligini tasdiqlaydi.

*“OFB Corporate” (veb va mobil versiya)
tizimidan foydalangan holda bank hisobvarag‘ini
yuritish bo‘yicha qo‘shilish shartnomasiga
1-sonli ilova*

AXBOROT ALMASHISH UCHUN ELEKTRON IMZO KALITINING TASDIQLANGANLIGI TO‘G‘RISDA DALOLATNOMA

Ushbu Dalolatnoma elektron imzo mijozning qonuniy vakiliga tegishliligini bildiradi:

Elektron imzo kalit egasining F.I.Sh.: **XXX**

Tashkilot nomi: **XXX**

Elektron imzo kalitning amal qilish muddati boshlanish davri: **XX-XX-XXXX**

Elektron imzo kalitning amal qilish muddati tugash davri: **XX-XX-XXXX**

Elektron imzo kaliti AKHQV asosida yaratilgan: PayControl

Elektron kalit identifikatori: **XXX**

Ochiq kalit:

Elektron kalit ro‘yxatdan o‘tkazilgan va axborot almashuvi uchun qo’llash imkoniyatiga
ega.

Elektron kalit egasi

Tashkilot rahbari

_____ / _____ /

_____ / _____ /

_____ / _____ /

Bank nomidan

M.O‘.

_____ / _____ /

M.O‘.